



BOLALARNING TABIATGA OID TADQIQIY-IJODIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA TARBIYA TURLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Bo'riyeva T.A.

Qarshi davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası doktoranti

Tayanch so'zlar: maktabgacha yosh, tabiat, ijod, ko'nikma, tarbiya, ta'lim, mehnat, jismoniy tarbiya, axloq, ekologiya, estetika.

Ключевые слова: дошкольный возраст, природа, творчество, умения, воспитание, образование, труд, физическое воспитание, этика, экология, эстетика.

Key words: preschool age, nature, creativity, skills, upbringing, education, labor, physical education, ethics, ecology, aesthetics.

Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun kompleks ta'lim-tarbiya vositasi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jonajon o'lka tabiati – daryolar, tog'lar, o'rmonlar, dam olish joylari, sihatgohlar haqidagi matnlar bilan tanishtirib borish, mamlakat hamda jamiyat uchun ularning ahamiyatini ta'kidlab o'tish muhim hisoblanadi. Bunday ma'lumotlar Vatanparvarlik hissini, o'z ona Vatani bilan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalaydi va tarbiyalanuvchilar tarbiyasida muhim omil hisoblanadi.



Vatanparvarlik tarbiyasi.

Maktabgachayoshdavridatarbiyalanishi lozim bo'lgan axloqiy fazilatlardan biri bu –Vatanparvarlik tarbiyasidir. Vatanparvarlik barcha tarixiy davrlar va barcha avlodlar uchun xos xususiyatdir. Jamiyatning rivojlanishi, mavjud shart-sharoitlarning o'zgarishi bilan vatanparvarlik tushunchasi mazmun-mohiyati ham o'ziga xos ahamiyat kasb etib boradi. Vatanparvarlik



tushunchasining mohiyatini anglash uchun har bir davlatning tashkil topishi va mustahkamlanishi, uning milliy mustaqillik uchun kurashi, ona Vatanining tabiati, uning tabiiy resurslari, ekologiyasi, iqlimi haqidagi ma'lumotlardan xabardor bo'lish lozim. Ana shu sababli Vatanparvarlik minglab yillar davomida odamlarda shakllangan yuksak hissiyotdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishimiz uchun o'z Vatanining go'zal va so'lim tabiati, tug'ilib o'sgan joyi tarixi, madaniyati va geografiyasi, yurtdoshlarining qahramonliklari, olimlarning, madaniyat arboblarning yutuqlari bilan tanishtirib borishimiz lozim.

Vatanparvar shaxs o'z Vatani haqida quyidagi his-tuyg'ularga ega bo'lishi kerak:

- o'z tug'ilib o'sgan joyini sevishi undagi an'ana va urf-odatlarni hurmat qilishi;
- o'z Vatani tarixini bilishi, uning o'tmishi va buguni bilan faxrlanishi;
- tabiatini sevishi;
- uning har qarich yerini asrab-avaylashi;
- o'z Vatanida istiqomat qilayotgan turli millat vakillarni o'rtasidagi do'stlikni rivojlantirishi va mustahkamlashi;
- Vatanining yer usti va yer osti tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanishi va ularni kelajak avlodga bus butunligicha yetkazib berish uchun o'zida mas'uliyat hissini tuya olishi;
- ona Vatanimiz tabiatini asrab-avaylash uchun o'tkaziladigan har qaday jamoat tadbirlarida faol ishtirok etishi.

Estetik tarbiya. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari bolalar uchun estetik tarbiyaning muhim manbai hisoblanadi. Mashg'ulotlar davomida bolalarda estetik his, estetik did, estetik munosabat, yashash sharoitida go'zallik yaratishda faol ishtirok etish istagi tarbiyalanadi. Estetik tarbiya keng ma'noli tushuncha bo'lib, u o'z ichiga tabiat, mehnat, turmush va san'atga estetik munosabat kabilarni qamrab oladi. Estetik tabiya bolalarni hayotdagi go'zallikni tushunishga va zavq olishga, tabiatda, turmushda, kishilarning xatti-harakatlarida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zallikni ko'ra bilishga o'rgatadi.



Estetik tarbiya vositalari quyidagilar:

- tevarak-atrofdan olingan ta'surotlar;
- tabiat, uning ne'matlari, san'at asarlari;



- bolalarning tasviriy faoliyatlari;
- bayramlar, sport musobaqalari va ko‘ngilochar tadbirlar;
- rejali va tizimli amalga oshirilayotgan mashg‘ulotlar.

Axloqiy tarbiya. Axloqiy tarbiya deganda, yosh avlodni barcha oliyjanob sifatlarni mujassamlashtirish ruhida tarbiyalash jarayoni tushuniladi. Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida tarbiyalanuvchilarda tabiatga, atrofdegai odamlar mehnatiga

axloqiy munosabatda bo‘lishni tarbiyalash lozim. Ammo axloqiy tarbiyaning barcha tomonlarini qamrab olish tarbiyachining bir o‘zi uchun qiyin. Bu butun maktabgacha ta‘lim tashkilotning, qolaversa, ota-onalarning vazifasidir. Tarbiyalanuvchilarda mashg‘ulotning barcha shakllarida (sayr, ekskursiyalar, jamoaviy mehnat jarayonlarida, tabiat burchagida, “Fan va tabiat” markazlarida, yer maydonchalarida) tabiatga nisbatan axloqiy tarbiyani shakllantirib borish lozim.

Tabiatga axloqiy munosabatda bo‘lishni barcha hatto eng sodda holatlarda ham amalga oshirishimiz zarur. Masalan, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida ekskursiya vaqtida tarbiyalanuvchilarni gerbariy uchun ko‘p miqdorda o‘simliklarni yig‘ishdan to‘xtatish, gerbariy uchun to‘kilgan o‘simlik va mevalar barglaridan foydalanish zarurligi, guldasta uchun ko‘p gullar uzmaslikni tushuntirish lozim. Axloqiy tarbiya jarayoni murakkab jarayon bo‘lib, uzoq vaqt, kerak bo‘lsa yillar davomida qilingan mehnatning samarasi hisoblanadi.



Aqliy tarbiya. Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarining bolalarni aqliy kamol topishida ta‘siri kattadir. Kelajak avlodni aqliy tarbiya bilan qurollantirish umumiy tarbiyaning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Aqliy kamolot – bu yoshning ulg‘ayib, tajribaning oshib borishi va tarbiyaviy ishlar ta‘sirida bolaning aqliy faoliyatida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining majmuasidir. Mashg‘ulotlar davomida maktabgacha

yoshdagi bolalar ongida atrofni o‘rab turgan dunyo haqida aniq, ilmiy bilimlar

hosil qilish muhimdir. Zero, noto‘g‘ri tushunchalarni tuzatish, yangi bilimlar hosil qilishdan ancha murakkabdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ma‘lumotlarni tez va oson qabul qiladi va xotirada saqlab qoladi. Shunday ekan, bu yoshda bolalarning bilimlari tez sur‘atlarda boyib boradi, nutqi shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy jihatdan rivojlanishini ta‘minlash, ularning kelajakdagi barcha faoliyatlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bola ijtimoiy muhit, tabiat, tevarak-atrof ta‘sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Barcha psixolog va pedagoglar bolaning aqliy rivojlanishida ta‘lim asosiy o‘rin egallashini e‘tirof etadi. Bu jarayonda “ta‘limning tabiat bilan uyg‘unligi” tamoyiliga qat‘iy amal qilish lozim.

Jismoniy tarbiya. Insontaning sog‘lom va baquvvat bo‘lishi uning ma‘naviy shakllanishi va mazmunli hayot kechirishi uchun muhim hisoblanadi. Zero, xalqimiz orasida “sog‘ tanda – sog‘lom aql”, “salomatlik tuman boylik”, “boylikning boshi – sog‘lik” kabi maqollar bejizga aytilmagan.

Maktabgacha yosh davri bolaning har tomonlama rivojlanish davri hisoblanadi. Bu yoshda bolaning bo‘yi va vazni ham boshqa yosh davrlariga qaraganda tez ortib boradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bolalarda jismoniy tarbiyani yoshlikdan rivojlantirib borish kerak.

Yer uchastkasida ekilgan o‘simliklarni parvarish qilish, ularni begona o‘tlardan tozalash, sug‘orish, tagini yumshatish, madaniy va mineral o‘g‘itlar solish kabi ishlar bolalarni ham mehnatsevarlikka o‘rgatishga hamda sog‘lom qilib tarbiyalashga olib keladi.

Mehnat tarbiyasi. Yosh avlod odob-axloqi, ta‘lim tarbiyasi va kelajagi uchun mehnat tarbiyasi muhim hisoblanadi. Xalqimiz orasida keng tarqalgan mehnat haqidagi maqollar, xususan, “mehnatdan kelsa boylik – turmush bo‘lar chiroylik”, “mehnat bilan topganing – qand-u asal totganing” kabi maqollar





yoshlarni aynan mehnat tarbiyasi ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi. Mehnat tarbiyasini shakllantirish asosan oiladan boshlanadi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlod dunyoqarashni, ta'lim tarbiyasini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Zotan, keng dunyoqarashga ega yoshlar mamlakatni rivojlantiradi, yurt farovonligini yuksaltiradi, o'z manfaatlaridan xalq manfaatini ustun qo'yadi. Ayniqsa, tabiiy-ilmiiy dunyoqarashga ega bo'lgan yoshlar intellektual salohiyatli, ilmga chanqoq, izlanuvchan, fan negizlarini puxta o'zlashtirgan bo'ladilar.

Adabiyotlar:

1. Davletshin. M.G., Do'stmuhamedova Sh. va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O'quv metodik qo'llanma. -T.: 2004. 129 b.
2. Хайдаров Қ., Нишонова С. Табиатшунослик асослари ва болаларни атроф-табиат билан та-ништириш. -Т.: “Ўқитувчи” 1992. 177 б.
3. Xasanboeva O.U., Djabborova X.D. “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi”. -T.: “Cho'lpon” 2007. 128 b.
4. Юсупова П “Мактабгача ёшдаги болаларга экологик тарбия бериш”. –Т.: “Ўқитувчи” 1995. 235 б.

РЕЗИМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida tarbiya turlarini rivojlantirish, xususan bolalarni tabiat bilan tanishtirish orqali ularda tarbiya turlarini kompleks rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Bolaning har tomonlama shakllanishida tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari davomida olib boriladigan ishlarning o'rni va ahamiyati, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, Vatanparvarlik tarbiyasi, jismoniy, mehnat va ekologik tarbiyani rivojlantirishning asosiy garovi ekanligi haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

РЕЗИМЕ

В данной статье описаны особенности развития образовательных видов в процессе формирования исследовательских и творческих способностей дошкольников, связанных с природой, в частности, всестороннее развитие образовательных видов путем знакомства детей с природой. Роль и значение работы, проводимой на занятиях по ознакомлению с природой, в всестороннем формировании ребенка, мнение о том, что занятия по ознакомлению с природой являются основным залогом развития умственного воспитания, нравственного воспитания, эстетического воспитания, патриотического воспитания, физическое, трудовое и экологическое воспитание и замечания.

SUMMARY

This article describes the specific features of the development of educational types in the process of forming the research and creative skills of preschool children related to nature, in particular, the comprehensive development of educational types by introducing children to nature. The role and importance of the work carried out during the nature introduction classes in the all-round formation of the child, the opinion that the nature introduction classes are the main guarantee for the development of mental education, moral education, aesthetic education, patriotic education, physical, labor and environmental education and comments are made.